

CHET TILINI O‘QITISH METODIKALARI

Abdullayeva Mohinur Jumaboy qizi

Guliston davlat pedagogika insituti , "Xorijiy til va adabiyoti" fakulteti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada chet tilini o‘qitishda hozirgi kunda foydalanilayotgan zamonaviy metodlar va ularning samaralari xususida so‘z yuritiladi

Kalit so‘zlar: kommunikatsiya, zamonaviy, bilim, ko‘nikma, metodika, reyting, til o‘rganuvchilar, innovatsiya.

Hozirgi kunda o‘sib kelayotgan yosh avlodni xorijiy tillariga o‘qitish sifatini ta‘minlash, chet tillarida erkin fikr bildira oladigan professional kadrlarni tayyorlash tizimini tubdan o‘zgartirish, chet tillarni chuqur o‘rganish orqali jahon ta‘lim standartlariga javob beradigan yetuk mutaxassislarini tayyorlash yurtimizda amalga oshirilayotgan ta‘lim tizimi islohotining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Til o‘rgatishdagi imkoniyatlarni aniqlash va ularni hayotga tatbiq qilishda o‘qituvchining bilimi, mahorati, talabalarni o‘z faniga nisbatan muhabbatini uyg‘ota olishi, talaba bilan hamkorlik munosabatini o‘rnata olishi hozirgi davrning dolzarb talabidir. Chet tillarini chuqur o‘zlashtirish tog‘risidagi qaror chet tillarini o‘rgatishni yanada rivojlantirish, xalqaro standartlariga muvofiq umumta‘lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar, oliy ta‘lim muassasalari uchun chet tillarini yuqori darajada egallagan malakali o‘qituvchilarini tayyorlash darajasi va sifatini yaxshilash chora-tadbirlarini amalga oshirishni qo‘llab -quvvatlash maqsadida qabul qilindi. Shu bilan birga aytish lozimki, har bir o‘rganilayotgan tilning o‘ziga xos qirralari, qonun-qoidalari, sir-asrorlari mavjud. Xalqaro standartlarga javob beruvchi yetuk mutaxassis kadr bo‘lish uchun o‘rganuvchidan tilning eng nozik qatlamlarini nazardan qoldirmasdan sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Hozirgi rivojlanib borayotgan zamonaviy dunyoda xorijiy tillarni o‘rganish keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Shu bois, yoshlar orasida xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish kundan- kunga ortib bormoqda. Bu esa o‘qituvchilardan yuqori saviya va innovatsion, samarali usullardan foydalanishni , o‘z ustida ko‘proq ishlashni talab etmoqda. Xorijiy tillarni mukammal o‘rganish uchun o‘quvchida tinglab tushunish (Listening), o‘qish (Reading), so‘zlashish (Speaking) va yozma nutq (Writing) ko‘nikmlarini rivojlantirish talab etiladi. Chunki xorijiy tilni amaliyotda qo‘llash jarayonida muloqotda bo‘layotgan shaxsni tinglab tushunish, berilgan ma‘lumotni o‘qib tushunish hamda og‘zaki yoki yozma tarzda javob qaytarish muhimdir. Chet tilini bilish darajasini aniqlovchi bir nechta imtihon turlari mavjud. IELTS (inglizcha: International English Language Testing System)- inglizabon mamlakatda ta‘lim olmoqchi, immigratsiya qilmoqchi yoki amaliyot o‘tamoqchi bo‘lgan kishilar uchun test

sinovi. Test ona tili ingliz tili bo'lmagan insonlarning bu tilni qanchalik chuqur bilishlarini aniqlashga yordam beradi.

TOEFL(Test of English as a Foreign Language) - „ Xorijiy til sifatida ingliz tili testi “— test topshiruvchining ingliz tilini bilish darajasini aniqlovchi standartlashtirilgan test. TOEFL sertifikatini 2 yil haqiqiydir. Ilk marotaba 1964- yilda kiritilgan. O'sha vaqtdan buyon uni 20 milliondan ortiq kishi topshirgan. Shuningdek, TOEFL jahondagi ingliz tilini bilish darajasini aniqlovchi asosiy ikki testdan biri bo'lib, ikkinchisi IELTS sanaladi.

CEFR - tillar bo'yicha umumiy Yevropa ma'lumot tizimi: o'rganish, o'qitish, baholash (Common European Framework of Reference,) Yevropa Ittifoqida qo'llaniladigan chET tilini bilish darajalari tizimidir. Yevropa Kengashi tomonidan 1989- 1996- yillar oralig'ida „ Yevropa fuqaroligini olish uchun til o'rganish" loyihasining asosiy qismi sifatida ishlab chiqilgan. CEFR tizimining asosiy maqsadi barcha Yevropa tillari uchun qo'llaniladigan baholash va o'qitish usulini taqdim etishdan iborat. 2001- yilning noyabr oyida Yevropa Ittifoqi Kengashining natijalariga ko'ra, tilni bilish darajasini baholash hamda milliy tizimlarni yaratish uchun CEFR dan foydalanishni tavsiya qilinmoqda.

Ushbu ko'nikmalarni qay darajada amalga oshirishni tekshirish orqali so'zlovchining xorijiy tilni bilish darajasiga baho berish mumkin.Ushbu ko'nikmalarni xalqaro darajada sinovdan o'tkazish va til bilish darajasini tasdiqlovchi hujjatga ega bo'lish imkoniyatini beruvchi bir qator sinov imtixonlari mavjud.Xususan, IELTS (International English Language Test System), TOEFL(Test of English as a Foreign Language) ,CEFR(The Common European Framework of Reference for Languages) imtixonlarini topshirish orqali sertifikatga ega bo'lish mumkin. Bu sertifikat esa o'z navbatida Oliy ta'lim muassasalariga kirish, xorijiy davlatda malaka oshirish, o'qish, tadqiqot ishlarini amalga oshirish, dunyo qarashni kengaytirish, ishlash imkoniyatlarini beradi.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishda milliy hamda xalqaro baholash tizimlari sertifikatlarini tadbiq etish chora tadbirlari to'grisida” gi 395-sonli qaroriga muvofiq, 2019-2020-o'quv yilidan boshlab Oliy ta'lim muassasalariga kirish sinovlarida ingliz tili uchun quyidagi imtiyozlar belgilandi: test sinovlari (kasbiy -ijodiy) imtihon) majmuasiga chet tili (ingliz, nemis, fransuz, ispan, turk, arab, fors, dari, hind, urdu, xitoy, koreys, uyg'ur, ital'yan, yapon tillari) (keyingi o'rinlarda chet tili deb ataladi) birinchi (asosiy) fan sifatida kiritilgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga hujjat topshirgan va Davlat test markazi tomonidan beriladigan chet tilini bilish darajasi to'g'risidagi sertifikat (keyingi o'rinlarda milliy sertifikat deb ataladi) yoki xalqaro sertifikat International English Language Testing System (IELTS 5,5), Test of English as a Foreign Language (TOEFL IBT 72), Cambridge Assessment English FCE xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha tilni bilish darajalari B2 va undan yuqori darajalariga ega bo'lgan abituriyentlarga ushbu fandan imtihonlarsiz belgilangan maksimal ball beriladi.

Ushbu imtihonlarda kutilgan darajaga ega bo'lish uchun o'quvchilar samarali metodlardan foydalanib o'qitilishi lozim. Listening (tinglab tushunish) ko'nikmasini rivojlantirish uchun o'quvchilarga " Radio Work", " My Voice" kabi usullardan foydalanish mumkin." RadioWork" usulida o'quvchilarga radiodagi suhandonning ovozlari yozib olish hamda bir- birlari bilan almashgan holda eshittirish, talaffuz xatolarini toppish vazifasi beriladi. Bunda kichik va tushunish uchun qulay matnlardan foydalanish mumkin." My Voice" usulida esa o'quvchilar orasida kimning eshitib ,tog'ri tushunib eng yaxshi yozolishi va to'g'ri talaffuzga egaligi bo'yicha kichik musobaqa tashkil etish mumkin. Bu esa o'quvchida bir vaqtning o'zida eshitish hamda tog'ri talaffuz ko'nikmalarini rivojlantiradi."Transcript" yozish va doimiy holatda "Podcast" lar eshitib yurish ham tog'ri tushuna olish uchun samaralidir. Shuningdek, qo'shimcha rivojlantiruvchi usul sifatida " Mind Concentration" ya'ni " Diqqatni jamlash" mashqlari kutilgan natija beradi. Chunki tinglab tushuning jarayonida diqqatni jamlash, fikrni bir nuqtaga qaratish muhim ahamiyatga egadir. Reading (o'qish) berilgan yozma ma'lumotni o'qish va va tushunish ko'nikmasi hisoblanadi. Ushbu ko'nikmani o'zlashtirishning o'ziga xos mushkul jihatlaridan biri shuki, u o'quvchidan qisqa vaqt ichida berilgan ma'lumotni o'qish, tarjima qilish, tahlil qilish va tushunish, logikani ishlatgan holda tog'ri javobni topishni talab etadi. Samarali usul sifatida " Best Reader", " Read Me" kabilar tavsiya etiladi." Best Reader" usulida o'quvchilar orasida qiziqarli matnlar, hikoyalar o'qish bo'yicha musobaqa tashkillashtirish mumkin. Bunda ularni savodxonlikka jalb etish darajasi ham oshadi." Read Me" usulida esa o'quvchilar o'qigan ma'lumotlarini tahlil etishlari, xotiiralarda saqlanib qolgan qismini og'zaki ravishda gapirib berishlari lozim. Lekin o'quvchilar uchun yangi ma'lumotlarini jamlagan qo'llanmalardan foydalanish kerak. Ular o'qish jarayonida Scanning va skimming usullaridan qanday foydalanish mumkinligi haqida ham tushuncha berilishi lozim.Yana shu narsani aytib o'tish lozimki, ushbu ko'nikmalar davomida o'quvchilarda turli dunyoviy bilimlar shakllanadi ,yangi -yangi ma'lumotlarga ega bo'ladi. Writing (yozish) yozma nutq ko'nikmasi til bilish darajasini baholovchi asosiy omillardan biridir. Chunki o'quvchining so'zlarni mohirona qo'llash, grammatika qoidalariga rioya qilish va fikrlash qobiliyati sinovdan o'tkaziladi. Bu turda o'quvchining dunyoqarashi ham baholamadi desak mubolag'a bo'lmaydi chunki berilgan mavzuga o'z fikrini bildira olishi va ba'zi o'rinda tanqid qila olishi ham talab etiladi.Yozma nutqni rivojlantirish uchun avvalo, o'quvchining dunyoqarashini kengaytirish lozim. Bunda " Discussion time", " Brain Storming" kabi usullardan foydalanib bir masalada ularning fikrlari kengaytiriladi. So'ngra ushbu fikrlarni qanday qilib tartib bilan yozish o'rgatiladi. Qo'shimcha qilganda ,har xil ilmiy ,siyosiy kitob va maqolalarni o'qish ham foydali bo'ladi. Speaking (so'zlashish) ko'nikmasini rivojlantirish uchun o'quvchilarga ko'proq matn tuzish va gapirib berish, mavzular bo'yicha kichik taqdimotlar tayyorlash va uni " public speech" ya'ni omma qarshisida gapirib berishlari orqali ulardagi hayajon, ikkilanishni kamaytirish maqsadga muvofiqdir. Har doim har xil mavzularda sherikimiz bilan "Debate" ya'ni fikr almashishlar ham samarali metodlardan biridir.

Shu o'rinda xulosa qilib aytganda, chet tilini o'rganish xalqaro maydonda ko'plab imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Shu boisdan , deyarli barcha mamlakatda til o'rganushga katta e'tibor qaratilmoqda va sharoitlar yaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://lex.uz/docs/4332249>
2. <https://ielts.org>
3. https://en.wikipedia.org/wiki/List_of_language_proficiency_tests
4. "Chet tili o'qitish metodikasi" Samarqand chet tillari davlat universiteti.

